XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 2 - aprel VI-50-64-10-0-K/22 Toshkent viloyati hokimiligi

Mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan turizm hududlari chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarorining 1-ilovasida mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, ro‘yxatga Toshkent viloyatidan Angren shahri, Parkent, Bo‘stonliq va Ohangaron tumanlari kiritilgan. Bunda, tuman va shaharlarning turizm hududlari chegaralari Turizm va sport vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining hududiy bosh boshqarmalari xulosalari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasining birgalikdagi xulosasiga hama O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonununing 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarorining 1-ilovasida mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati keltirilganligi, mazkur ro‘yxatga Toshkent viloyatining Angren shahri, Parkent, Bo‘stonliq va Ohangaron tumanlari ham kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Angren shahri, Parkent, Bo‘stonliq va Ohangaron tumanlaridagi mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan turizm hududlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror “Toshkent haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev va Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Djurabayev zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi o'rinbosari **Turdiboyeva R. E.**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2022 yil 2 apreldagi
VI-50-64-10-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

Mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tumanlardagi turizm hududlari

RO‘YXATI

T/r	Hudud nomi	Mahalla fuqarolar yig'ini nomi
1.	Angren shahar	“Yangiobod” mahalla fuqarolar yig‘ini
2.	Angren shahar	“Lashkarak” mahalla fuqarolar yig‘ini
3.	Parkent tumani	“Qirg‘izovul” mahalla fuqarolar yig‘ini
4.	Parkent tumani	“Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini
5.	Parkent tumani	“Qizilsoy” mahalla fuqarolar yig‘ini
6.	Parkent tumani	“Nevich” mahalla fuqarolar yig‘ini
7.	Parkent tumani	“Obod” mahalla fuqarolar yig‘ini
8.	Parkent tumani	“Yangi Sanganak” mahalla fuqarolar yig‘ini
9.	Parkent tumani	“Tolbuloq” mahalla fuqarolar yig‘ini
10.	Parkent tumani	“Nurobod” mahalla fuqarolar yig‘ini
11.	Bo‘stonliq tumani	“Pskom” mahalla fuqarolar yig‘ini
12.	Bo‘stonliq tumani	“Uzun” mahalla fuqarolar yig‘ini
13.	Bo‘stonliq tumani	“T.Dadaboev” mahalla fuqarolar yig‘ini
14.	Bo‘stonliq tumani	“Boyterak” mahalla fuqarolar yig‘ini
15.	Bo‘stonliq tumani	“Baxchaovul” mahalla fuqarolar yig‘ini
16.	Bo‘stonliq tumani	“Yakkatut” mahalla fuqarolar yig‘ini
17.	Bo‘stonliq tumani	“Yoshlik” mahalla fuqarolar yig‘ini
18.	Bo‘stonliq tumani	“Uyenkulsay” mahalla fuqarolar yig‘ini
19.	Ohangaron tumani	“Ovjazsoy” mahalla fuqarolar yig‘ini
20.	Ohangaron tumani	“Ko‘ksaroy” mahalla fuqarolar yig‘ini
21.	Ohangaron tumani	“Alisher” mahalla fuqarolar yig‘ini